

**MUQIMIY NOMIDAGI QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.06.2021.Fil.132.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

ISMOILOVA NODIRABEGIM USMONJON QIZI

**QUR‘ONI KARIM TAFSIRIDAGI O‘XSHATISHLARNING
LINGVISTIK XUSUSIYATLARI (Shayx Muhammad Sodiq
Muhammad Yusufning “Tafsiri Hilol” asari misolida)**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qo‘qon – 2023

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in
philological sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

Ismoilova Nodirabegim Usmonjon qizi

Qur’oni Karim tafsiridagi o‘xshatishlarning lingvistik xususiyatlari
(Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning “Tafsiri Hilol”
asari misolida) 3

Ismoilova Nodirabegim Usmonjon kizi

Linguistic characteristics of the similes in the interpretation of the Qur'an
(In the example of the work "Tafsir Hilal" by Sheikh Muhammad Sadik
Muhammad Yusuf)..... 29

Исмоилова Нодирабегим Усмонжон кизи

Лингвистические особенности уподоблений в тefsире Корана (на основе
истолкования Шайха Мухаммад Содик Мухаммад Юсуфа в книге
“Тафсири Хилал”) 57

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

List of published works
Список опубликованных работ..... 61

**MUQIMIY NOMIDAGI QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.06.2021.Fil.132.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

ISMOILOVA NODIRABEGIM USMONJON QIZI

**QUR‘ONI KARIM TAFSIRIDAGI O‘XSHATISHLARNING
LINGVISTIK XUSUSIYATLARI (Shayx Muhammad Sodiq
Muhammad Yusufning “Tafsiri Hilol” asari misolida)**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qo‘qon – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida E2022.4.PhD/Fil2163 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.kspi.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Nurmanova Dilfuza Abduhamidovna
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Jamoliddinova Dilnoza Mirhojiddinovna
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Raupova Laylo Raximovna
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qo'qon davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD 03/04.06.2021.Fil.132.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "01" "09" soat 9:00dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 150700, Qo'qon shahri, Turon ko'chasi, 23. Tel: (99873) 542-38-38, faks: (99873) 542-11-43; e-mail: quqondpi@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Qo'qon davlat pedagogika instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 150700, Qo'qon shahri, Turon ko'chasi, 23. Tel: (99890) 508-64-42; e-mail: qdpi_arm@umail.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "____" _____ kuni tarqatildi.
(2023-yil "____" _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).



M. Hakimov

M. Hakimov
ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
raisi, filol.f.d., professor

Sh. Akramov

Sh. Akramov
ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
kombi, filol.f.n., dotsent

M. Hakimova

M. Hakimova
ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
qoshlagi ilmiy seminar raisi,
filol.f.d., dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda tilshunoslikning fanlar sistemasidagi qator yondosh sohalar bilan o‘zaro integrallashuvi yangi-yangi fan yo‘nalishlarining paydo bo‘lishiga zamin hozirladi. Bugun til ilmida bo‘y ko‘rsatayotgan navqiron yo‘nalishlar antropotsentrik paradigma asosidagi masalalarni qamrab olganligi hamda o‘zining shaxs-nutq kesishmasidagi muhim nazariy va amaliy qarashlari asosida ilmiy tadqiqot xulosalarini boyitmoqda.

Dunyo tilshunosligida bugungi kunga kelib diniy matnlarning diniy uslub nuqtai nazaridan bir necha yo‘nalishlarda sistem-struktur hamda antropotsentrik jihatdan tavsiflanishi tilshunoslikning takomili uchun munosib xizmat qilmoqda. Haqli ravishda ta’kidlash joizki, tilshunoslikda badiiy matnlarning shakliy-mazmuniy stukturasiga xos jihatlar atroflicha tadqiq etilgan bo‘lsa-da, diniy manba va matnlarning tavsifi va tasnifi, ularga xos differensial xususiyatlar yetarlicha o‘rganilmagan. Shu ma’noda muqaddas diniy manba – Qur’oni Karimni teolingvistikaning tadqiq obykti sifatida yoritish, diniy matnlar sirasida uning tafsiridagi o‘xshatish konstruksiyalarining lingvistik xususiyatlarini ochib berish o‘zbek tilshunosligining rivojlanayotgan tarmog‘i taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda, ayniqsa, Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida o‘zbek tilini yanada rivojlantirish borasida keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq: jaholatga qarshi ma’rifat ulug‘vor g‘oya asosida dinning asl insonparvarlik mohiyatini, ezgulik, tinchlik va insoniylik kabi fazilatlar, azaliy qadriyatlarimiz ifodasi ekanligini keng yoritish va bu sohadagi ilmiy-ma’rifiy faoliyatni jadal tashkil etish”¹ ayni davrda tilshunoslik hamda din ilmini mutanosiblikda o‘rganish borasida qimmatli ilmiy izlanishlarni talab etmoqda. O‘zbek tilshunosligida mazkur doirada bajarilgan tadqiqotlarda, asosiy e’tibor: diniy uslub va diniy terminologiya; diniy matnlardagi ekzotik leksika; muqaddas matnlarda zamon kategoriyasini ifodalovchi temporal so‘zlarning lingvomadaniy xususiyatlari; o‘zbek diniy matnining funksional-stilistik tahlili; dunyoning lisoniy tasvirida diniy-mifologik tasavvurning aks etishi; diniy matnlarning lingvopragmatik xususiyatlari kabi masalalarga qaratilgan bo‘lsa-da, Qur’oni Karim tafsiridagi o‘xshatishlar teolingvistik tadqiqot obykti sifatida monografik tarzda o‘rganilmagan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4997-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini

¹ Бу ҳақда қаранг: Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Диний-маърифий соҳа фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида 16.04.2018 йилдаги ПФ-5416-сон. <https://lex.uz/docs/3686277>; Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон Фармони. – Т.: Адолат, 2017. – 112 б.; Мирзиёев Ш. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 47 б.; Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 75-сессиясидаги нутқи. 23.09.2020// <https://president.uz/uz/lists/view/3851>.

tashkil etish to‘g‘risida”gi, 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari va shu sohaga oid me‘yoriy-huquqiy hujjatlar, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori, 2018-yil 16-apreldagi PF-5416-sonli “Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqesini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari; Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-dekabrda 984-son “Davlat tilini rivojlantirish departamenti to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida diniy matnlarni tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etishi bilan birga alohida mas’uliyat talab qiladi, albatta. XX asrning oxiridan boshlab, diniy til muammosi, diniy tilning qo‘llanish sohalari, diniy matnlar kabi masalalar tadqiqi rivojlandi. Diniy matnlarni turli nuqtai nazardan o‘rgangan o‘zbek olimlaridan M.Umarxo‘jayev², N.M.Uluqov³, Sh.S.Sirojiddinov⁴, Sh.T.Mahmaraimova⁵, Sh.M.Sultonova⁶, M.R.Galiyeva⁷, Sh.R.Amonturdiyeva⁸, Sh.T.Yusupova⁹ kabilarni e‘tirof etish zarur.

O‘xshatishlar tadqiqida esa ularning morfologik, mazmuniy va stilistik jihatlariga bag‘ishlangan ishlardan rus tilshunosligida M.I.Chyeremisina, L.A.Lebedeva¹⁰; o‘zbek tilshunosligida R.Qo‘ng‘urov, M.Mukarramov,

² Umarxo‘jayev M. Diniy atamalar va iboralar. Ommaobod kiskacha izohli lug‘at. – Toshkent: Faqur Fulom, 2016. – 220 b.

³ Uluqov N.M. Ўзбекча диний матнлар экзотик лексикаси: Филол. фан. номз. дисс. ... автореферати. – Toshkent, 1997. – 25 b.

⁴ Сирожидинов Ш.С. Диний-фалсафий таълимотлар ва Навоий дунёқараши // Алишер Навоий ижодий ва маънавий меросининг оламшумул аҳамияти. Халқаро илмий-назарий анжуман материаллари. – Toshkent, 2011.

⁵ Махмараимова Ш.Т. Оламнинг миллий лисоний тасвирида теоморфик метафоранинг когнитив аспекти: Филол. фан. б.ф.д. (PhD) диссертацияси. – Қарши, 2018.

⁶ Султонова Ш.М. Муқаддас матнларда замон категориясининг лингвомаданий хусусиятлари: Филол. фан. б.ф.д. (PhD) диссертацияси. – Фарғона, 2018. – 124 б.

⁷ Галиева М.Р. Дунёнинг лисоний тасвирида диний мифологик тафаккурнинг акс этиши. Филол. фан. доктори (DSc) ... диссертацияси автореферати. – Фарғона, 2018. – 77 б.

⁸ Амонтурдыева Ш.Р. Ўзбек диний матнининг функционал-стилистик таҳлили: Филол. фан. б.ф.д. (PhD) диссертацияси. – Самарқанд, 2018.

⁹ Юсупова Ш.Т. Диний матнларнинг лингвопрагматик хусусиятлари: Филол. фан. б.ф.д. (PhD) диссертацияси. – Фарғона, 2018. – 154 б.

¹⁰ Черемисина М.И. Сравнительные конструкции русского языка. – Новосибирск: Наука, 1976. – 239 с.; Лебедева Л.А. Устойчивые сравнения русского языка во фразеологии и фразеграфии. – Краснодар, 1999. – 196 с.

D.Xudoyberganovalarning¹¹ tadqiqotlarini ko'rsatish mumkin. N.Mahmudovning o'zbek tili turg'un o'xshatishlari haqidagi maqolalari¹² o'zbek tilshunosligida o'xshatishlarni lingvomadaniy jihatdan o'rganishga qaratilgan dastlabki tadqiqotlardan hisoblanadi. Shuningdek, N.Mahmudov va D.Xudoyberganovalar tomonidan tuzilgan "O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati"¹³da tilimizdagi 500 dan ziyod o'xshatishlarning semantik va lingvomadaniy xususiyatlari leksikografik jihatdan dalillanadi.

Bundan tashqari F.Usmonovning falsafa doktori dissertatsiyasi alohida e'tirofga molik. Tadqiqotda o'zbek tilidagi turg'un o'xshatishlarni lingvomadaniy jihatdan tadqiq etish orqali o'zbek millatiga xos bo'lgan lisoniy manzara tavsiflanadi, milliy madaniyatga xos qadriyatlar tizimi asoslanadi¹⁴.

Alohida ta'kidlash joizki, yuqoridagi ikki muhim jabha: diniy matnlar hamda o'xshatishlarni bir tadqiqotda bir-birini to'ldiruvchi uzvlar sifatida tadqiq etish ulkan ilmiy-nazariy "sarmoya" beradi. O'zbek tilshunosligida bugungi kunga qadar olib borilgan tadqiqotlarda muqaddas diniy manba – Qur'oni Karim tafsiridagi o'xshatishlarning monografik planda o'rganilmaganligi mavzuning dolzarbligi hamda tadqiq obyektining yangiligini asoslaydi. Dissertatsiyani yozish jarayonida nomlari ko'rsatilgan va boshqa bir qator o'zbek hamda jahon olimlarining ilmiy izlanishlari e'tiborga olindi. Tadqiqotimizda mazkur yo'nalishda bajarilgan ishlardan farqli ravishda o'zbek tilshunosligida ilk bor Qur'oni Karim teolingvistik tadqiq obyektiga aylantirilgan hamda uning tafsiridagi o'xshatishlarga xos lingvistik xususiyatlar ochib berilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Andijon davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalari" mavzusi bilan bog'liq ravishda bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek tilshunosligida ilk bor muqaddas diniy manba – Qur'oni Karimni teolingvistikaning tadqiq obyektini sifatida tavsiflash hamda uning tafsiridagi o'xshatish konstruksiyalarining lingvistik xususiyatlarini tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

jahon hamda o'zbek tilshunosligida teolingvistik tadqiqotlar ko'lamini yoritib berish;

o'zbek tilshunosligida ilk bor muqaddas diniy manba – Qur'oni Karimni teolingvistik tadqiq obyektiga aylantirish;

¹¹ Кўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Тошкент: Фан, 1977. – 152 б.; Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. Монография. – Тошкент: Фан, 1976. – 88 б.; Худайберганова Д.С. Семантический и стилистический анализ конструкций уподобления в узбекском языке: Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1989. – 127 с.

¹² Маҳмудов Н. Ўхшатишлар – образли тафаккур маҳсули // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2011. – №3. – Б. 19-24; Маҳмудов Н. Ўхшатишлар ва миллий нигоҳ // Тил тилсими тадқиқи. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2017. – Б. 166-175.

¹³ Маҳмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013. – 320 б.

¹⁴ Усмонов Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи: Филол. фан. б.ф.д. (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2020. – 150 б.

o‘xshatishning ikki bosqichda amalga oshirilishi, o‘xshatish amaliyotida uni bajaruvchi birgina inson emasligini dalillash;

o‘xshatish konstruksiyalarining shakliy-mazmuniy tuzilishi borasidagi jahon va o‘zbek olimlarining qarashlarini umumlashtirish;

o‘xshatish to‘rt komponentdan iborat bo‘lgandagina tadqiq obyektini to‘laqonli tavsiflashini dalillash;

Qur’oni Karim tafsiridagi o‘xshatishlarni ikkita: til va nutq bosqichida lingvistik va pragmatik aspektda yoritib berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida muqaddas diniy manba – Qur’oni Karimning o‘zbek tilidagi tafsiri – Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning “Tafsiri Hilol” asarida keltirilgan o‘xshatishlar olingan.

Tadqiqotning predmetini Qur’oni Karim tafsiridagi o‘xshatishlarning lingvistik va pragmatik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda teolingvistik tavsiflash, leksik-semantik, statistik, pragmatik hamda komponent tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o‘xshatish amaliyotida uni bajaruvchi birgina inson emasligi dalillanib, o‘xshatish amaliy Alloh taalo → insoniyat va borliq, inson → insoniyat va borliq kabi ikki bosqichda amalga oshirilishi asoslangan;

o‘xshatish konstruksiyalarining shakliy-mazmuniy qurilish mexanizmi ochib berilib, $\{A [(B) \beta] C\}$ formulasi asosida to‘rt komponent: *A – qiyos subyektining simvoli*, *B – qiyos etaloni simvoli*, *β – qiyosning formal ko‘rsatkichi*, *C – qiyos asosining simvolidan* iborat bo‘lgandagina obyektini to‘laqonli tavsiflashi diniy matn – tafsirdagi o‘xshatishlar asosida dalillangan;

Qur’oni Karim tafsiridagi o‘xshatishlar ikki bosqichda ochib berilib, *til bosqichida* o‘zbek tilshunosligida mavjud o‘n to‘rtta o‘xshatish turi to‘rt komponent asosida tavsiflangan, *nutq bosqichida* ilk bor pragmatik o‘xshatish turi mavjud ekani isbotlangan;

o‘zbek tilshunosligida diniy matn muallifining roli belgilangan hamda shu asosda ikkita: muqaddas diniy manbalar va diniy matnlar guruhi farqlanib, ularning tarkibiy qismlari aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Qur’oni Karim tafsiridagi o‘xshatishlarning lingvistik xususiyatlari tadqiqi natijasida olingan xulosalardan matn tilshunosligi, teolingvistika, lingvopragmatika, terminologiya, leksikografiya kabi sohalarga doir tadqiqotlar yaratishda foydalanish mumkinligi dalillangan;

Qur’oni Karim tafsiridagi o‘xshatishlarning lingvistik xususiyatlariga doir qarashlar asosida teolingvistika masalalarini o‘rganishda, diniy matnlarga oid sohaviy leksik birliklar – diniy terminologik lug‘atlar yaratishda manba bo‘lib xizmat qilishi asoslangan;

muqaddas diniy manba va matnlarning uslubiy-funksional xususiyatlariga oid qarashlar matn tilshunosligi va uslubshunoslik sohalari uchun muhim nazariy qarashlarning shakllanishiga asos bo‘lishi isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilishi, chiqarilgan xulosalarning qat'iyiligi, sistem-struktur va antropotsentrik paradigmda qo'llangan usullardan foydalanilganlik kabilar bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shuki, avvalo, dissertatsiya natijalari o'zbek teolingvistikasining nazariy jihatdan taraqqiy topishiga xizmat qiladi. Qur'oni Karim tafsiridagi o'xshatishlar tadqiqi leksikologiya, uslubiyat, terminologiya bilan bog'liq ilmiy-nazariy qarashlarni to'ldiradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, dissertatsiya natijalaridan matn tilshunosligi, lingvopragmatika, kognitiv tilshunoslik, sotsiolingvistika, psixolingvistika, neyrolingvistika va madaniyatshunoslik bo'yicha yaratiladigan o'quv qo'llanmalarining mukammallashuvi uchun xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'xshatish konstruksiyalarining shakliy-mazmuniy qurilish mexanizmi tadqiqi bo'yicha erishilgan ilmiy xulosalar asosida:

o'xshatish konstruksiyalarining shakliy-mazmuniy tuzilishi borasidagi jahon va o'zbek olimlarining qarashlari sharhi, o'xshatish to'rt komponentdan iborat bo'lgandagina tadqiq obyektini to'laqonli tavsiflay olishi yuzasidan keltirilgan dalillar; o'xshatish konstruksiyalari tadqiqidagi ikki xil nazariy bosqich, xususan, til bosqichida o'zbek tilshunosligida mavjud o'xshatish turlarini to'rt komponent asosidagi tavsifi, nutq bosqichida pragmatik o'xshatish turi mavjud ekani bo'yicha ilmiy-nazariy yondashuvlardan O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filiali tomonidan olib borilgan F3-2016-0908165532-raqamli "Qoraqalpoq tilining yangi alfavit va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotini rivojlantirish metodikasi"(2017-2020) mavzusidagi fundamental loyihani bajarishda foydalanilgan (T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filialining 2022-yil 17-noyabrdagi 327-raqamli ma'lumotnomasi). Natijada loyihadagi nazariy qarashlarning qimmatini ortishi va boyitilishiga erishilgan;

Qur'oni Karim tafsiridagi o'xshatishlarning lingvistik tadqiqi yuzasidan erishilgan ilmiy natijalaridan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilishi 2018-2020-yillarga mo'ljallangan BV-Atex-2018-(143) raqamli "Ko'zi ojiz shaxslar uchun kompyuter texnikasidan foydalanish, matnlarni o'qish va yozish imkonini beruvchi o'zbek tiliga asoslangan gapiruvchi dasturiy ta'minot va ovoz sintezatorini ishlab chiqish" nomli amaliy grant loyihasi doirasida foydalanilgan (O'zbekiston respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2022-yil 28-oktyabrdagi 04/1-3546-son ma'lumotnomasi). Natijada, o'xshatish konstruksiyalarining shakliy-mazmuniy tuzilishi, yondosh hodisalar bilan integral va differensial jihatlari borasidagi qarashlar mukammallashgan;

"Tafsiri Hilol" asarida keltirilgan o'xshatish konstruksiyalarining lingvistik tadqiqi bo'yicha erishilgan ilmiy xulosalardan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasining "O'zbekiston 24" teleradiokanali DM "O'zbekiston 24" radiokanalining "Radiomuloqot" va "Muhim mavzu" dasturlari ssenariylarini

(2021-2022-yillar) tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanali Davlat muassasasining 2022-yil 21-noyabrdagi 03-09-636-son ma’lumotnomasi). Natijada radioeshittirishlarning ilmiy metodologik va amaliy dolzarbligini ta’minlashga erishilgan;

o‘xshatish amaliyotining ikki bosqichi yuzasidan chiqarilgan ilmiy xulosalardan Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida “jaholatga qarshi ma’rifat” ulug‘vor g‘oya asosida dinning asl insonparvarlik mohiyatini, ezgulik, tinchlik va insoniylik kabi fazilatlarining azaliy qadriyatlarimizning ifodasi ekanligini keng yoritishda O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanali DM “Madaniy-ma’rifiy va badiiy eshittirishlar” muharririyatining “Ta’lim va taraqqiyot”, “O‘zbekiston yoshlari”, “Hidoyat sari” dasturlari ssenariylarini (2021-2022-yillar) tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanali Davlat muassasasining 2022-yil 17-noyabrdagi 04-36-1903-son ma’lumotnomasi). Natijada radioeshittirishlarning ilmiy metodologik va amaliy dolzarbligini ta’minlashga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 11 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta ilmiy maqola, jumladan, 3 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi ilovalardan tashqari 125 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismda mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, dissertatsiyaning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqotning natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Qur’oni Karim – teolingvistikaning tadqiq obyekti sifatida”** deb nomlanib, uning birinchi fasli **“Jahon tilshunosligida teolingvistik tadqiqotlar”**ga bag‘ishlanadi.

Mazkur faslda jahon tilshunosligida teolingvistikaning mohiyati va ahamiyatiga doir dastlabki qarashlar, mustaqil fan yo‘nalishi sifatidagi takomili, diniy til muammosi, diniy tilning qo‘llanish sohalari va bu borada izlanishlar olib borgan jahon tilshunoslari va ularning ilmiy-nazariy tadqiqotlariga urg‘u beriladi.

XX asr dunyo tilshunosligida yangi antropotsentrik ilmiy paradigma shakllangach, til tadqiqida inson omili asosiy o‘rinda turuvchi yangi sohalar

qatorida teolingvistika ham e'tirof etilib, o'zining diniy uslub doirasida barcha turdagi diniy matnlarni tadqiq obyektiga aylantirish xususiyati bilan alohida qimmat kasb etmoqda.

“Teolingvistika”, dastlab, atama sifatida D.Kristalning terminologik lug'atida¹⁵ aks etganini e'tirof etish joiz. Termin sifatida esa ilk bor Belgiyalik olim “teolingvistikaning otasi”¹⁶ sifatida nom qozongan Jan-Per vann Noppen tomonidan 1981-yilda ilmiy hayotga olib kirilgan. Jan-Per vann Noppen “Teolingvistika” nomli maqolalar to'plamida¹⁷ mazkur yo'nalishning rivojlanishiga turli soha vakillari, xusasan, dinshunos va tilshunoslar, faylasuflar, antropolog, psixologlar hamda sotsiologlar birdek mas'ul bo'lishlari zarurligini ta'kidlaydi¹⁸.

Jahon tilshunosligida teolingvistikaga doir qarashlar XX asrning 60-yillarida boshlangan. SSR mustamlakasiga aylantirilgan qator mamlakatlarda 90-yillarga kelibgina din va tilshunoslik o'rtasidagi ilm haqida dastlabki maqolalar yaratila boshlandi¹⁹.

Teolingvistikaning mustaqil fan yo'nalishi sifatidagi takomilini uning bir qancha jabhalari tadqiqi bilan izohlashimiz mumkin. Bunda tabiiy taqozo bilan dunyo xalqlarining aksariyati boshqa dinlarga mansubligi, tadqiqotimizning Islom dini nuqtai nazaridan yondashuvni izohlashini e'tirof etgan holda mavjud tadqiqotlarni shartli ravishda ikki guruhga birlashtirgan holda (I. O'zga dinlar doirasidagi teolingvistik tadqiqotlar hamda II. Islom dini doirasidagi teolingvistik tadqiqotlarni) farqlashimiz to'g'ridir. Quyidagicha:

I. O'zga dinlar doirasidagi teolingvistik tadqiqotlar.

1. Teolingvistikaga oid ilk ilmiy-nazariy qarashlar (Devid Kristal, Jan Per van Noppen, Uilyam Samarin).

2. Diniy va'zlarning fonetik va prosodik xususiyatlari (N.Ivoylova, K.Kuzmina, O.Proxvatilova, Y.Roslova, V.Postovalova, Y.Krimskaya, Z.Buyukatalay, Innosent E.Agu, Evangelina S.Agu va Abubakar T.Liman).

3. Diniy leksikaning o'ziga xos xususiyatlari (Yu.Mixaylova, K.Timofeyev, P.Yakimov, R.Goryushina, S.Bulavina, I.Matey, G.Sklyarevskaya, M.Petuxova).

4. Diniy funksional uslub masalalari (O.Proxvatilova, I.Golberg, A.K.Gadomsiy, M.Voytak, Yu.Mistrik, O.Krilova, A.Busel, S.Gosteyeva).

5. Diniy nutqning fonetik xususiyatlari: diniy va'zlarning prosodik, intonatsion, xususiyatlari, notiq nutqiga oid prosodik tuzilish, sukutning xususiyatlari (O.A.Proxvatilova, Y.Roslova, V.Postovalova, Y.Krimskaya).

6. Diniy vazlarning lingvistik xususiyatlari (Afrika tilshunoslari Innosent E.Agu, Evangelina S.Agu va Abubakar T.Liman).

¹⁵ Юсупова Ш. Кўрсатилган манба. – Б. 19.

¹⁶ Жданова И.В. Семантико-структурная и функциональная специфика заглавий богословско-религиозного жанра // Молодой ученый. 2011. – № 3. Т.2. – С.12-17. URL <https://moluch.ru/archive/26/2773/>

¹⁷ Бу ҳақда қаранг: Van Noppen, J.P. (ed.) Theolinguistics. – Brussels: Studiereeks Tijdschrift Vrije Universiteit Brussel. New series – No.8. 1981.

¹⁸ Бу ҳақда қаранг: Van Noppen, J.P. (ed.) Theolinguistics. – Brussels: Studiereeks Tijdschrift Vrije Universiteit Brussel. New series – No.8.1981; Van Noppen, J.P. (ed.) Metaphor and Religion (Theolinguistics 2). – Brussels: Studiereeks Tijdschrift Vrije Universiteit Brussel. New series – No.12.1983; van Noppen J.P. Critical Theolinguistics vs.the literalist paradigm. Sociolinguistica 25, 28-40. 2011.

¹⁹ Юсупова Ш. Кўрсатилган манба. – Б. 5.

II. Islom dini doirasidagi teolingvistik tadqiqotlar.

1. Diniy soha vakillari va o'qituvchilarga xos ovoz bilan bog'liq patologiyalar (turkiyalik olimlar Zahide Buyukatalay, Muhammed Gokmen, Sibel Yildirim, Gursel Dursun).

2. Din va filologiya muammolari doirasida: turkologiyada, asosan, Qur'oni Karimni o'rganish asosiy o'rinda turadi. Bunda "Qozoq adabiyotida Qur'on an'anasi" – A.Serikbayev²⁰; "Qur'oni Karimning turkiy tillardagi tarjimai tili va uslubi" – N.Suyargulov²¹; "Qur'oni Karimdagi Yusuf alayhissalom qissasi va Kul Galining "Qissai Yusuf" asarida syujet masalalari" – R.Sharyafetdinov²²larning izlanishlarida ochib beriladi²³.

Professor A. Nurmonovning "Tanlangan asarlar"ida qayd etilishicha, Sharqda din va til masalalarini o'rganish, Qur'oni Karimni o'rganish asnosida yuzaga kelgan. Mazkur manbaning tadqiqi esa o'z navbatida tilshunoslikning fan sifatida rivojlanishida sezilarli ta'sir o'tkazgan. Bu esa o'z o'rnida din va tilshunoslik masalalariga e'tibor VII asrlardan oq boshlanganligi, "arab tilshunosligi" atamasi ostida Qur'oni Karimni lingvistik tadqiq qilish vujudga kelganini izohlaydi²⁴.

Ushbu nomi zikr etilgan olimlar va ularning tadqiqotlari natijasida teolingvistikaning yangi mustaqil paradigma sifatidagi mavqesi belgilab berilgani hamda din va til masalalarining munosabatdorligi asosida yangi nazariy qarashlar bilan boyiganini alohida ta'kidlash zarur.

Bobning ikkinchi fasli "*O'zbek tilshunosligida teolingvistik tadqiqotlar ko'lami*" deb nomlanadi. Unda Yangi O'zbekistonda barcha sohalar kabi "diniy erkinlik" borasida ham vaziyat keskin yaxshilanganligi, buning barobarida barcha fan sohalar qatori tilshunoslik ilmida ham teolingvistik yo'nalishda amalga oshirilayotgan tadqiqotlar alohida qimmat kasb etishiga urg'u beriladi. Bundan tashqari, o'zbek tilshunosligida teolingvistikaning taraqqiyoti, bu boradagi izlanishlar miqdor jihatidan oz bo'lsa-da, salmoqli o'rin egallashi; diniy uslubga oid qarashlar, diniy til muammosi, diniy tilning qo'llanish sohalar, diniy matnlar kabi masalalar; diniy matnlarni nutqning oltinchi funksional uslubi sifatida e'tirof etilayotgan diniy uslub nuqtai nazaridan tadqiq etish masalasi va unga doir mulohazalar keltiriladi. Mazkur faslda o'z o'rnida tilshunoslik va din masalalari yuzasidan tadqiqotchilar oldida ko'plab muhim vazifalar yetarli darajada ekaniga urg'u berilib, o'z yechimini kutayotgan 11 ta dolzarb mavzu belgilab berilgan.

Ayni davrda tilshunoslik hamda din ilmini mutanosiblikda o'rganish borasida o'zbek olimlari tomonidan qimmatli ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, M.Umarxo'jayev²⁵ (diniy uslub va diniy terminologiya),

²⁰ Серикбаева А. С. Кораническая традиция в казахской литературе. Автореф.дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 2001. – 241 с.

²¹Суйаргулов Н.А. Особенности языка и стиля башкирская перевода Корана: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Уфа, 2004. – 77 с.

²² Шарьяфетдинов Р.Х. Трансформация коранического сюжета об Иосифе Прекрасном в поэме Кул Гали "Кысса-и Йусуф": "Сказание об Йусуфе". Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. 2009 //www.cyberleninka.ru.

²³ Юсупова Ш. Кўрсатилган манба. – Б. 26.

²⁴ Бу ҳақда қаранг: Нурмонов А. Танланган асарлар. Уч жилдлик. – Т.: Академнашр, 2012. 1-жилд. – 416 б.; Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. –Т.: Ўзбекистон, 2002. – Б. 30.

²⁵ Умархўжа М. Диний атамалар ва иборалар. Оммабоп қискача изоҳли луғат. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2016. – 220 б.

N.M.Uluqov²⁶ (o‘zbekcha diniy matnlardagi ekzotik leksika), Sh.T.Mahmaraimova²⁷ (teomorf metaforalarning kognitiv aspekti), Sh.M.Sultonova²⁸ (muqaddas matnlarda zamon kategoriyasini ifodalovchi temporal so‘zlarning lingvomadaniy xususiyatlari), M.R.Galiyeva²⁹ (olamning lisoniy manzarasida mifologik-diniy ong), Sh.R.Amonturdiyeva³⁰ (o‘zbek diniy matnining funksional-stilistik tahlili), Sh.T.Yusupova³¹ (diniy matnlarning lingvopragmatik xususiyatlari) kabilarning tadqiqotlari hamda Sh.S.Sirojiddinovning³² (o‘zbek klassiklari ijodida diniy-falsafiy ta’limotga bag‘ishlangan) maqolasi alohida qimmatga egadir. Shunday bo‘lsa-da, o‘zbek tilshunosligida muqaddas diniy manba – Qur’oni Karim teolingvistikaning tadqiq obyekti sifatida tavsiflanmagan, diniy matnlar sirasida uning tafsiridagi o‘xshatish konstruksiyalarining lingvistik xususiyatlari ochib berilmagan. Bu esa o‘z o‘rnida o‘zbek teolingvistikasi taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tilshunoslik ilmida diniy matnlarning turli nuqtai nazardan tadqiqi amalga oshirilgan ekan, albatta, o‘zbek tilida mavjud nutq uslublaridan o‘zining differensial belgilari bilan farqlanib turuvchi diniy uslub haqida so‘z yuritish tabiiy taqozoga aylanadi. Tadqiqotlarda “diniy uslub” termini birinchi marta 1992-yilda Yu.Mistikning “Diniy uslub” (“Religiozniy stil”) va M.Voytakning “О зарождении религиозного стиля в полском языке” (“Polyak tilida diniy uslubning tug‘ilishi haqida”) nomli maqolalarida qo‘llanilgani e’tirof etiladi³³. Jahon tilshunosligida diniy funksional uslubni farqlash bo‘yicha, rus va polyak tilshunosligi vakillari faolligi kuzatiladi. Xususan, rus tilshunosligida O.A.Proxvatilova, A.K.Gadomskiy, Yu.Mistik, O.A.Krilova, A.A.Busel, S.A.Gosteyeva, L.P.Krisin, I.M.Golberg, O.Aleksandrova; polyak tilshunosligida M.Voytak kabi tilshunoslar diniy funksional uslubning mavjud ekanligini ta’kidlaydilar va uning o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq etadilar³⁴.

O‘zbek tilshunosligida U.Tursunov, B.O‘rinboyev, S.Karimov, M.Umarxo‘jayev, Sh.Sultonova, Sh.Amonturdiyeva hamda Sh.Yusupovalar boshqa uslublar qatorida diniy uslubning mavjudligini ta’kidlaydilar. “Diniy stil” termini 1982-yilda ilmiy hayotga olib kirilgani holda ilmiy adabiyotlarda

²⁶ Улуков Н.М. Ўзбекча диний матнлар экзотик лексикаси: Филол. фан. номз. дисс. ... автореферати. – Тошкент, 1997. – 25 б.

²⁷ Махмараимова Ш.Т. Оламнинг миллий лисоний тасвирида теоморфик метафоранинг кognитив аспекти: Филол. фан. б.ф.д. (PhD) диссертацияси. – Қарши, 2018.

²⁸ Султонова Ш.М. Муқаддас матнларда замон категориясининг лингвомаданий хусусиятлари: Филол. фан. б.ф.д. (PhD) диссертацияси. – Фарғона, 2018.

²⁹ Галиева М.Р. Дунёнинг лисоний тасвирида диний морфологик тафаккурнинг акс этиши. Филол. фан. доктори (DSc) ... дисс. автореф. – Фарғона, 2018. – 77 с.

³⁰ Амонтурдиева Ш.Р. Ўзбек диний матнининг функционал-стилистик таҳлили: Филол. фан. б.ф.д. (PhD) диссертацияси. – Самарқанд, 2018.

³¹ Юсупова Ш.Т. Диний матнларнинг лингвопрагматик хусусиятлари: Филол. фан. б.ф.д. (PhD) диссертацияси. – Фарғона, 2018. – 154 б.

³² Сирожидинов Ш.С. Диний-фалсафий таълимотлар ва Навоий дунёқараши // Алишер Навоий ижодий ва маънавий меросининг оламшумул аҳамияти. Халқаро илмий-назарий анжуман материаллари. – Тошкент, 2011.

³³ Гадомский А.К. Стилистический подход к изучению религиозного языка [Электронный ресурс]. Режим доступа: <http://www.rastko.rs/filologija/stil/2008/02Gadomski.pdf>; Mistrik, J. Religiozniy styl. – W.: Stylistika 1, 1992. – С.82-89; Wojtak M. O poczatkach stylu religijnego w polszczyznie. – W.: Stylistika 1, 1992. – С. 90-97.

³⁴ Бу ҳақда қаранг: Юсупова Ш. – 154 б.

U.Tursunov va B.O‘rinboevlar tomonidan qo‘llanilgani³⁵ va “barcha tillarda, xususan, o‘zbek tilida ham stilistik jihatdan boshqa nutq uslublaridan farqlanuvchi diniy funksional uslub mavjud”³⁶ligi aytiladi.

Biz ham teolingvistik yo‘nalishdagi mazkur izlanishimiz asnosida nutqning oltinchi funksional uslubi sifatida e‘tirof etilayotgan *diniy uslub* mavjudligini ta‘kidlaymiz. Chunki, “diniy e‘tiqod mavjud ekan, (muquddas oliy-diniy manba – Qur‘oni Karim bor ekan – N.I.) diniy faoliyat bilan shug‘ullanadigan fuqarolar, diniy rukndagi asarlar yaratadigan olim va ulamolar bor ekan, turli janrdagi diniy matnlar yaratilar ekan, ularning o‘ziga xos uslubiy belgilarini farqlash zaruriyati yuzaga keladi”³⁷.

Dissertatsiyaning uchinchi fasli **“O‘zbek tilshunosligida Qur‘oni Karim teolingvistik tadqiqot obyekti sifatida”** deb nomlanadi.

E‘tirof etilganidek, o‘zbek til ilmida teolingvistika bugun faol shakllanayotgan navqiron yo‘nalish bo‘lgani holda ushbu tarmoq bo‘yicha monografik tarzda yangidan yangi ilmiy izlanishlar olib borish zarurati ko‘zga tashlanadi. Bu esa o‘z navbatida teolingvistikaning dolzarb masalalarini kelgusi tadqiqot mavzulari sifatida ko‘rsatib o‘tishni taqozo qiladi. Shu ma‘noda dissertatsiyada o‘n bir banddan iborat dolzarb mavzular majmui hukmingizga havola etiladi. Bajarilajak tadqiqotlarda diniy matnlarni bugungi zamonaviy tilshunoslik nuqtai nazari, xususan, antropotsentrik paradigma asosida shaxs-nutq kesishmasida tadqiq etishga urg‘u berilishi maqsadga muvofiqdir. Boshqa nutq uslublariga mansub matn turlaridan farqli holda diniy uslubga xos diniy matnlar tavsifi va tasnifida, dastlab, ularni yaratuvchi *muallifning* kim ekaniga e‘tibor qaratish to‘g‘ridir. Shu nuqtai nazardan ularni ikki guruhga ajratildi. Tasnifda *muqaddas diniy manbalarning* **Yaratuvchi** tomonidan nozil qilinganligi bilan o‘ziga xosligi; *diniy matnlar* esa muqaddas diniy manbalarga asoslanishi va o‘z o‘rnida insoniyat qalamiga mansub ekani bilan xarakterlanadi:

I. Muqaddas diniy manbalar:

1. Zabur.
2. Tavrot.
3. Injil.
4. Qur‘oni Karim.

II. Diniy matnlar:

1. Hadislar.
2. Qur‘oni Karimning ma‘nolar tarjimasini.
3. Qur‘oni Karim tafsiri.
4. Diniy ilmiy matnlar (*tajvid, hadisshunoslik, islom tarixi, fiqh kabi yo‘nalishlarda yaratilgan ilmiy matnlar*).
5. Dinga oid terminografik va qomusiy lug‘atlar.
6. Diniy publitsistik matnlar.
7. Diniy va‘zlar.
8. Duo matnlari.

Ta‘kidlash zarurki, ushbu tasnif Islom dini nuqtai nazaridan yondashuvni izohlaydi.

³⁵ Турсунов У., Ўринбоев Б. Ўзбек адабий тили тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982. – Б. 12.

³⁶ Юсупова Ш. Кўрсатилган манба. – Б. 138.

³⁷ Юсупова Ш. Кўрсатилган манба. – Б. 26.

I. Muqaddas diniy manbalar. Ushbu guruhni nomlashda matn deb emas, balki *manba* deyishimiz to‘g‘ridir. Bu esa o‘z o‘rnida uning eng asosiy va birlamchi asos ekanligiga ishora qiladi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida *manba* so‘ziga to‘rt jabhaga doir izoh beriladi. Geografiyada ham, ishlab chiqarishda ham, ko‘chma ma’noda va ilmiy uslubda ham manba – *boshlanish, ibtido, asos-omil* ma’nosini ifodalamoqda.

II. Diniy matnlar. Birinchi guruhni izohlovchi *muqaddas diniy manbalar* ikkinchi guruhga birlashtirilgan barcha *diniy matn* turlari uchun ibtido, asos-omil vazifasini o‘taydi.

Diniy matnlar guruhida *hadislarning* boshqa turlarga nisbatan turg‘un xarakterga ega ekanini alohida e’tirof etish zarur. Bu esa ularning Islom dinida Qur’oni Karimdan keyingi ikkinchi asosiy omil ekanligi barobarida insoniyat qalamiga mansub bo‘lsa-da, matnining turg‘unligi, tahrir qilib bo‘lmasligi hamda o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish mumkin emasligi kabi jihatlari bilan muqaddas diniy manbalar guruhiga yaqin turadi.

Tadqiqotimizning ko‘lami va maqsadidan kelib chiqqan holda, biz asosiy e’tiborni birinchi – *muqaddas diniy manbalar* guruhidagi Qur’oni Karim manbasiga asoslanib, ikkinchi – *diniy matnlar* guruhiga kiritilgan *Qur’oni Karim tafsiridagi* o‘xshatish konstruksiyalarining lingvistik tadqiqiga qaratdik. Diniy matnlar guruhining tarkibiga kiruvchi boshqa matn turlari esa kelgusi ishlarimiz uchun tadqiq manbai sifatida ko‘zda tutilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**O‘xshatish amaliyotida ikki bosqich: tavsifiy va tasnifiy qarashlar**” deb nomlanadi. Uning birinchi faslida “**O‘xshatish amaliyotining zarurati**” xususida so‘z boradi.

O‘xshatish borasidagi ilmiy dalillarning dastlabki ko‘rinishlari – uning tavsifiy tadriji Aristoteldan boshlangani ma’lum. Bunda Faylasufning “Ritorika”, “Poetika” kabi asarlari³⁸; Platonning “Davlat” nomli asari³⁹ e’tirof etiladi. Qolaversa, faylasuf Yu.Rotenfeld; tishunoslar V.A.Maslova, A.N.Veselovskiy⁴⁰; o‘zbek tilshunoslari M.Mukarramov, N.Mahmudov, D.Xudoyberganova, Z.Tohirov, F.Usmonov; adabiyotshunolar: D.Quronov, M.Yoqubbekova, Z.Mamajonovlarning o‘xshatishlar yuzasidan qimmatli qarashlari mavjud. Mazkur olimlarning tadqiqotlari o‘z o‘rnida – **insonga xos bo‘lgan** baho berish: qiyoslash, o‘xshash tomonlarni topish va topilma bilan o‘rtoqlashish xususiyatini ifodalovchi tasvir vositalaridan biri bo‘lgan o‘xshatishning (o‘xshatish amaliyotining) zaruratini izohlaydi. Ya’ni agar e’tibor berilsa, bugunga qadar o‘xshatish amaliyotining zarurati va ahamiyati borasida yuritilgan mulohazalarning barchasi **insonga xos bo‘lgan**, ya’ni insoniyatning butun borliq: atrof-olam, jamiyat, hayvonot dunyosi, samovot, yer kurrasi, nabotot olamini teran anglash-tanishga yo‘naltirilgan; insonning aynan shulardan “olgan” va aynan ularning o‘zlariga nisbatan qo‘llaydigan mantiqiy tasavvur mahsullari, o‘zi uchun noma’lum bo‘lgan

³⁸ Бу ҳақда қаранг: Аристотель. Риторика. Поэтика. – М.: Лабиринт, 2000. – С. 119; Аристотель. Риторика. Поэтика - М.: Лабиринт, 2000. – С.128.

³⁹ Платон. Сочинения. В 3-х т. Т.3.Ч.1. – М.: Мысль, 1971. – С. 176.

⁴⁰ Маслова В.А. Когнитивная лингвистика. – Минск: Тетра Системс, 2004. – С. 10.

subyekt yoki obyekt haqidagi ma'lumotning yorqin va obrazli tarzda anglanishi(o'zlashtirilishi)ni ta'minlovchi – o'xshatishlarni izohlaydi. Bu jarayonda **inson – yagona o'xshatish amalini bajaruvchi** sifatida ko'rilgani anglashiladi.


Alohida ta'kidlash joizki, o'xshatish amaliyoti faqatgina insoniyatgagina xos emas, ya'ni **inson yagona o'xshatuvchi emas**, balki **insoniyatning o'zi ham o'xshatish subyektidir**. Mazkur qarash o'xshatish amalini bajaruvchi birgina inson emasligini izohlash ma'nosida tushunilishi maqsadga muvofiq. Buni asoslash va sharxlash esa tadqiq obyektimiz bo'lgan Qur'oni Karim va uning tafsiridagi o'xshatishlarning lingvistik sharxi bilan bevosita bog'liq bo'lib, tadqiqotning mundarijasi va ko'lamidan anglashilgan mazmun-mohiyat asosida izohlanadi.

Dissertatsiya Qur'oni Karim tafsiridagi o'xshatishlar tadqiqiga bag'ishlanar ekan, dastlab, “mazkur manba muallifi kim?”, “undagi oyatlar (va ulardagi o'xshatishlar) kimlarga xitoban aytilgan (qo'llanilgan)?” kabi ikki savolga javob topish va izohlash masalasi birinchi o'ringa chiqadi.

Ma'lumki, Islom dinining mazmun-mohiyati, uning arkonlari haqida xabar beruvchi muqaddas diniy manba Qur'oni Karim hisoblanadi. “*Ana shunday qilib, senga ham Kitob nozil qildik...*” (Qur'oni Karim. Ankabut, 47-oyat). “*(Bu Rohman va Rohiym tomonidan nozil qilingandir*” (Qur'oni Karim. Fussilat, 2-oyat). “*Bu Aziyzu Rohiymning nozil qilganidir*” (Qur'oni Karim. Yaasin, 5-oyat). “*Batahqiq, Biz senga Kitob nozil qildik...*” (Qur'oni Karim. Anbiyo, 10-oyat); “*Bu kitobning nozil qilinishi aziyz-u hakiym bo'lgan Alloh tomonidandir*” va sh.k. Alloh taalo Qur'oni Karimning bir qator suralarida mazkur manbaning muallifi O'zi ekanini ta'kidlamoqda, va bundan yuqorida qo'yilgan birlamchi: “mazkur manba muallifi kim?” savolining javobi anglashiladi.

Ikkilamchi: “undagi oyatlar (va ulardagi o'xshatishlar) kimlarga xitoban aytilgan (qo'llanilgan)?” savolini esa quyidagi oyatlar dalillaydi: “*Ey odamlar! Sizga Robbingizdan burxon keldi va sizga aniq “nur”ni nozil qildik*” (Qur'oni Karim. Niso, 174-oyat). “*Ey odamlar! Sizga o'z Robbingizdan ma'viza, ko'ksingizdagi narsaga shifo, mo'minlarga hidoyat va rahmat keldi*” (Qur'oni Karim. Yunus, 57-oyat) va shu kabi qator oyatlardan anglashiladiki, Alloh taaloning Qur'oni Karimdagi oyatlari (va ulardagi o'xshatishlar) **insoniyatga** xitoban (nisbatan) aytilgan (qo'llanilgan). “***Inson yaxshilikka duo qilganidek, yomonlikka ham duo qilur. Inson shoshqaloq bo'lgandir***” (Qur'oni Karim. Isro, 11-oyat); “***Mollarini Allohning rozilgini istab, o'zlaridagi ishonch bilan sarflaydiganlar xuddi tepalikdagi bog'ga o'xshaydir. Unga qattiq yomg'ir yog'sa, mevasini ikki barobar beradi. Agar qattiq yomg'ir yog'masa, maydalab yog'gani ham bo'laveradi. Va Alloh qilayotganlaringizni ko'rib turuvchi Zotdir***” (Qur'oni Karim. Baqara, 265-oyat) va sh.k.

Demak, yuqoridagi mulohazalarimiz asosida xulosaviy fikr shuki, o'xshatish amaliyotida uni bajaruvchi birgina inson emas, o'xshatish Alloh taalo → insoniyat va borliq; inson → insoniyat va borliq kabi ikki bosqichda amalga oshiriladi:



1-rasm. O‘xshatish amaliyotining ikki bosqichi

Bobning ikkinchi fasli **“O‘xshatishning shakliy-mazmuniy maydoni”** deb nomlanadi. Unda o‘xshatishlarning shakliy-mazmuniy jihatdan o‘ziga xosligini ta‘minlovchi uzvlar va ularning tasnifi, mohiyatan o‘xshatishga yaqin konstruksiyalar, xususan, metaforalar bilan **integral** (umumlashtiruvchi) va **differensial** (farqlovchi) jihatlari xususida mulohaza yuritiladi va shu asosda uning til tizimidagi o‘rni va roli konkretlashtirish muhim ahamiyat kasb etishi dalillanadi.

Ushbu faslda o‘zbek tilshunosligida dastlab, metaforalarning lingvistik tadqiqi bo‘yicha G.Qobuljonovaning “Metaforaning sistemaviy lingvistik talqini” nomli nomzodlik dissertatsiyasini⁴¹ e‘tirof etamiz. Bundan tashqari, bir vaqtda ham tilshunoslikning, ham adabiyotshunoslikning obyekti bo‘lgan o‘xshatish va metaforaning farqlovchi jihatlari xususidagi qarashlar tilshunos M.Mukarramov; adabiyotshunoslar M.Yoqubbekova, D.Quronov hamda Z.Mamajonovlarning ham diqqat markazidan o‘rin olgani ta‘kidlanib, ularning qarashlariga sharxlar keltiriladi. Tilshunoslar qay o‘rinda o‘xshatishlar haqida fikr yuritsalar, metaforaga murojaat qilganlar. Mazkur faslda metodik an‘anani davom ettirgan holda o‘xshatishni metafora bilan qiyoslash orqali uning shakliy-mazmuniy maydonini aniq chegaralab beriladi.

Bobning uchinchi fasli **“O‘xshatishning struktural-kompozitsion tuzilishi”** deb nomlanadi. Unda tilshunoslikda mavjud izlanishlarda o‘xshatishni tashkil etuvchi asoslarni tavsiflash yuzasidan olimlarning qarashlari turlicha bo‘lgan va tasnifda, dastlab, ularning necha qismdan iborat bo‘lishi haqidagi mulohazalarga urg‘u beriladi. Bu xususida fikr yuritilib, shartli ravishda tadqiqotchilarning ikki guruhini farqlanadi. Birinchi guruhga o‘xshatish komponentlarini *uch qismdan* iborat ekanini qayd etuvchilar, ikkinchi guruhga esa *to‘rt qismga* bo‘lib ko‘rsatuvchilar kiritiladi.

Birinchi guruh, xususan, rus tilshunoslaridan B.V.Tomashevskiy A.I.Efimov M.A.Shapiro, V.V.Vinogradov, G.L.Abramovich, L.I.Timofeyev, A.Astaxov; o‘zbek olimlaridan M.Mukarramov A.Rustamov I.T.Yormatov A.Sa‘diylarning

⁴¹ Бу ҳақда қаранг: Қобулжонова Г. Кўрсатилган манба. – 104 б.

4. Qiyosning formal ko'rsatkichi va qiyos asosi simvolining ishtirokiga ko'ra: vositasiz o'xshatishlar.

5. Bir gap tarkibida o'xshatish konstruksiyasida to'rt komponentning bir, ikki yoki undan ortiq ishtirokiga ko'ra:

a) sodda o'xshatishlar; b) murakkab o'xshatishlar; s) tarkibli o'xshatishlar.

6. O'xshatish to'rt komponentning bir vaqtda bir necha gap tarkibida kelishiga ko'ra:

a) uzilgan o'xshatishlar; b) ketma-ket o'xshatishlar.

7. Qiyos etaloni simvolining qiyos subyekti simvoliga munosabatiga ko'ra:

a) old o'rinli o'xshatishlar; b) so'ng o'rinli o'xshatishlar.

Ushbu tasnif asosida o'xshatishlarning quyidagi 7 guruhi farqlandi:

1. Konkret va abstrakt o'xshatishlar.

2. Individual va turg'un o'xshatishlar.

3. To'liq va to'liqsiz o'xshatishlar.

4. Vositasiz o'xshatishlar.

5. Sodda, murakkab va tarkibli o'xshatishlar.

6. Uzilgan va ketma-ket o'xshatishlar.

7. Old o'rinli va so'ng o'rinli o'xshatishlar

Mazkur yetti guruh o'xshatishlari Qur'oni Karim tafsirigagina xos bo'lgan, shakliy-mazmuniy qurilishiga monand quyidagi 16 ta qiyosning formal ko'rsatkichlari orqali ifodalanishi aniqlandi:

| | | |
|-----------------------------|------------------------------------|----------------------------------|
| 1) -dek; | 2) -day; | 3) kabi; |
| 4) misoli ... -dek; | 5) xuddi; | 6) xuddi ... -dek; |
| 7) misoli ... -ga o'xshar; | 8) misoli xuddi ... -ga o'xshaydi; | 9) misoli ... kabi; |
| 10) xuddi ... -ga o'xshab; | 11) -ga o'xshar(b); | 12) go'yo ... -gan kabi; |
| 13) -gan kabi; | 14) xuddi ... -gan kabi bo'lur; | 15) xuddi... misoliga o'xshaydi; |
| 16) misoli xuddi ... go'yo. | | |

Tadqiqotda professor N.Mahmudov tavsiya etgan o'xshatish komponentlarining to'rt uzvini tavsiflovchi $\{A [(B) \beta] C\}$ formulasiga tayanildi. Qur'oni Karim tafsiridagi qiyosning formal ko'rsatkichlari yordamida bog'langan jami 154 ta o'xshatish konstruksiyalari saralab olingan bo'lib, dissertatsiyaning so'ngida o'xshatishlarni ushbu 16 ta qiyosning formal ko'rsatkichlari asosidagi guruhlarda tasniflangan ilova ko'rinishida keltirilgan. Ilovada o'xshatish turlarining mavzuviy guruhlariga bo'lib ko'rsatilmaganining obyektiv sababi sifatida, bir o'xshatish konstruksiyasi bir vaqtda turli jihatdan yuqoridagi yetti guruhning bir nechtasiga tegishli bo'lishi mumkinligi ta'kidlanadi.

I. Konkret va abstrakt o'xshatishlar. M.Mukarramov o'xshatishlarning hammasi sezgilar va tasavvurlar orqali yuzaga kelishi, shu jihatdan o'xshatishlar, avvalo, ikkita katta guruhga bo'linishini ta'kidlaydi⁴⁵.

1. Konkret o'xshatishlar – o'xshatish etalonida insonning beshta sezgi a'zosi 1) ko'zlar vositasida **ko'rish**; 2) quloqlar vositasida **eshitish**; 3) burun vositasida **hid bilish**; 4) til vositasida **maza-tamni sezish**; 5) butun tana a'zolari

⁴⁵ Mukarramov M. K'ursatilgan manba. – B. 25.

vositasida **teri-tuyg'usi** bilan anglash mumkin bo'lgan leksik birliklar bilan ifodalanadi.

1) ko'rish sezgi a'zosi bilan anglashiladigan o'xshatishlar:

a) -dek formal ko'rsatkichi yordamida: *Va albatta, Allohning bandasi Unga ibodat qilib turganda ular uning atrofida ot yolidek to'planib, bosib yuboray deyishdi* (Qur'oni Karim. Jin, 19-oyat) va sh.k.;

b) -day formal ko'rsatkichi yordamida: *Ularning o'sha dod-voylari biz ularni o'rilgan o'tday, sovigan kulday qilgunimizcha bardavom bo'ldi* (Qur'oni Karim. Anbiyo, 15-oyat) va sh.k.;

c) xuddi ... -dek formal ko'rsatkichi yordamida: *Ularning ustiga tog'ni xuddi soyabondek ko'targanimizni, ular uni, ustimizga tushib ketadi, deb o'ylaganlarida, sizga bergan narsamizni quvvat ila olinglar va undagi narsani eslanglar, shoyadki, taqvo qilsangiz, deganimizni esla* (Qur'oni Karim. A'rof, 171-oyat) va sh.k.;

d) misoli ... -ga o'xshar formal ko'rsatkichi yordamida: *Allohni qo'yib, o'zi do'stlar tutganlarning misoli o'ziga uy tutgan o'rgimchakka o'xshaydir. Holbuki, eng zaif uy o'rgimchakning uyasidir. Koshki, bilsalar edi* (Qur'oni Karim. Ankabut, 41-oyat) va sh.k.;

e) xuddi ... -ga o'xshab formal ko'rsatkichi yordamida: *U(hur)lar xuddi yoqut va marjonga o'xsharlar* (Qur'oni Karim. Ar-Rohman, 58-oyat); *U kunda osmon xuddi qora moy qoldiqlariga o'xshab qoladir* (Qur'oni Karim. Ma'orij, 8-oyat) va sh.k.;

f) -ga o'xshar(b) formal ko'rsatkichi yordamida: *U kunda odamlar to'zib ketgan kapalakka o'xshab qolarlar* (Qur'oni Karim. Qori'a, 4-oyat); *Va tog'lar titilgan junga o'xshab qolarlar* (Qur'oni Karim. Qori'a, 5-oyat) va sh.k.;

2) eshitish sezgi a'zosi bilan anglashiladigan o'xshatishlar:

a) -dek formal ko'rsatkichi yordamida: *Ey, iymon keltirganlar! Ovozingizni Payg'ambar ovoziidan yuqori ko'tarmang va unga bir-biringiz ila so'zlashgandek dag'al so'z ayt mang, o'zingiz sezmaganda holda amallaringiz habata bo'lib qolmasin* (Qur'oni Karim. Hujurot, 2-oyat) va sh.k.;

b) xuddi ... -dek formal ko'rsatkichi yordamida: *Qachon unga Bizning oyatlarimiz tilovat qilinsa, xuddi ularni eshitmagandek, xuddi qulog'ida og'irlik bordek, mutakabbirlik bilan ortga qarab ketar. Bas, unga alamli azobning bashoratini ber* (Qur'oni Karim. Luqmon, 7 -oyat) va sh.k.;

c) misoli ... -dek formal ko'rsatkichi yordamida: *Osmon-u yerning Robbisi ila qasamki, albatta, u (va'da) misoli siz nutq qilayotgangizdek haqiqatdir* (Qur'oni Karim. Zaariyat, 23-oyat) va sh.k.;

3) teri-tuyg'u bilan anglashiladigan o'xshatishlar:

a) misoli ... -ga o'xshar formal ko'rsatkichi yordamida: *Ularning bu dunyo hayotida qiladigan nafaqalari misoli o'ziga zulm qilgan bir qavmning ekinini urib, halok qilgan sovuq shamolga o'hshaydir. Alloh ularga zulm qilmadi. Lekin ular o'zlariga zulm qildilar* (Qur'oni Karim. Oli imron, 117-oyat) va sh.k.

4) **hid bilish** hamda 5) **maza-tamni sezish** bilan anglashiladigan o'xshatishlar mavjud emasligi aniqlandi.

154 ta o'xshatish konstruksiyalaridan 44 tasi konkret o'xshatishlar turini izohlaydi. Bundan ko'rish sezgisiga oid 39 ta, eshitish a'zosiga oid 4 ta, teri-

tuyg'uga oid 1 ta konkret o'xshatishlar mavjud bo'lib, ularda quyidagi 8 ta: *-dek; -day; kabi; misoli ... -dek; xuddi ... -dek; misoli ... -ga o'xshar; xuddi ... -ga o'xshab; xuddi ... misoliga o'xshar(b)* formal ko'rsatkichlarining faol qo'llanishi aniqlandi.

2. Abstrakt o'xshatishlarda mubolag'a va fantaziyaning ustunligi sezilib turadi, aslida esa narsa va hodisalar o'rtasida bunday o'xshashlik bo'lmaydi.

a) go'yo ... -gan kabi formal ko'rsatkichi yordamida: *Allohga bo'lgan iymondan og'mang, unga shirk keltirguvchi bo'lmang. Kim Allohga shirk keltirsa, bas, u go'yoki osmondan qulab tushgan-u, uni yirtqich qush olib qochgan yoki uchirib ketgan kabidir* (Qur'oni Karim. Haj, 31-oyat) va sh.k.;

b) misoli xuddi ... go'yo formal ko'rsatkichi yordamida: *Alloh osmonlar va yerning nuridir. Uning nurining misoli xuddi bir tokcha, uning ichiga chiroq qo'yilgan, chiroq esa, shisha ichida, shisha esa, go'yo durdan bo'lgan bir yulduz bo'lib, sharqiy ham, g'arbiy ham bo'lmagan muborak zaytun daraxtidan yoqiladir. Uning moyi o'ziga olov tegmasa ham, yoritib yuboray deydir. (Bu) nur ustiga nurdir. Alloh xohlagan odamni O'z nuriga hidoyat qilur. Alloh odamlarga misollarni keltirur. Alloh har bir narsani o'ta bilguvchidir* (Qur'oni Karim. Nur, 35-oyat) va sh.k.;

c) xuddi ... -ga o'xshab formal ko'rsatkichi yordamida: *Alloh yaxshi so'zga qanday misol keltirganini ko'rmaysanmi? U xuddi bir yaxshi daraxtga o'hshaydir. Uning asli sobit turadir. Shoxlari esa osmonda* (Qur'oni Karim. Ibrohim, 24-oyat) va sh.k.;

d) misoli xuddi ... -ga o'xshaydi formal ko'rsatkichi yordamida: *Mollarini Allohning yo'lida sarflaydiganlarning misoli xuddi bir dona donga o'hshaydir. Undan yetti boshog' o'sib chiqadir, har boshog'qa yuztadan don bor. Va Alloh kimga xohlasa, yana ko'paytirib beradir. Va Alloh qamrab oluvchi va biluvchi Zotdir* (Qur'oni Karim. Baqara, 261 -oyat) va sh.k.

154 ta o'xshatish konstruksiyalaridan 10 tasi **abstrakt o'xshatishlar** turini izohlaydi. Ularda quyidagi 4 ta: *misoli xuddi ... -ga o'xshaydi; xuddi ... -ga o'xshab; go'yo ... -gan kabi; misoli xuddi ... go'yo* formal ko'rsatkichlarining faol qo'llanishi aniqlandi.

II. Individual va turg'un o'xshatishlar.

1. Individual o'xshatishlar. Qur'oni Karim tafsiridagi individual o'xshatishlar – istalgan nutq uslubiga xos matn turlarida keltirilgan individual o'xshatishlardan farqli holda, muqaddas diniy manba – Qur'oni Karimni yaratuvchi Alloh taaloning mahoratini namoyon etuvchi vositalardan biri bo'lib, o'z badiiy tasvir maksadiga mos ravishda yuksak badiiyatga egadir. Bu o'xshatishlarning faqatgina Yaratuvchigagina tegishli ekani, insonni lol qoldiruvchi emotsional-ekspressivlik, obrazlilikni aks ettirishi barobarida badiiy-estetik qimmat kasb etishi va shu bilan birga konkretliligi – Alloh taaloning dunyo-oxirat ilmi Egasi sifatida O'zi yaratgan borliq hamda insoniyatning eng nozik nuqtalari – haqiqatlarini bilishi asosida ro'yobga chiqadi. Masalan, *“O'sha kunda osmonni xuddi maktub yozilgan daftarni yopgandek yopamiz. Avval qanday yaratgan bo'lsak, shunday holga qaytaramiz. Bu zimmamizdagi va'dadir. Albatta,*

Biz buni qilguvchimiz” (Qur’oni Karim. Anbiyo, 104-oyat) va sh.k. ishda 103 ta individual o‘xshatishlar aniqlangan.

2. Turg‘un o‘xshatishlarda o‘xshatish etalonida ifodalangan obraz barqarorlashgan bo‘ladi, xuddi tildagi tayyor birliklar kabi nutqqa olib kiriladi. Bu kabi fikrlar rus olimlari A.F.Yefremov, Y.Nekrasova, L.Lebedova va F.Xakimzyanov, V.Ogolsev, o‘zbek tilshunoslari M.Mukarramov N.Mahmudov, D.Xudoyberganova, F.Usmonovlarning tadqiqotlarida ham aks etgan.

Qur’oni Karim tafsirida keltirilgan turg‘un o‘xshatishlarning o‘ziga xosligi aksariyatining diniy nutq uslubiga xoslangani bilan xarakterlanadi. Tabiiyki, bu mental xususiyatlari Islom diniga yo‘g‘rilgan xalqning nutqiga xos turg‘un birliklar sifatida faol qo‘llanishda bo‘ladi. *“Axir, mo‘min bo‘lgan odam fosiq odamdek bo‘lurmi?! Teng bo‘lmaslar”* (Qur’oni Karim. Sajda, 18-oyat); *“Alloh ularning barchasini qayta tiriltiradigan kunda, xuddi sizlarga qasam ichganlaridek, Unga ham qasam icharlar, va biror narsaga erishamiz, deb o‘ylaydilar. Ayo, ogoh bo‘ling, ular, ha, ular yolg‘onchidirlar”* (Qur’oni Karim. Mujodala, 18-oyat) va sh.k.

Alohida ta’kidlaymizki, o‘xshatishlarning ikki vazifasi doimo e’tibor markazida birdek turishi lozim:

a) hissiy ta’siri (nutqning emotsional-ekspressivligi, ifodaliligi, ta’sirchanligini ta’minlash);

b) fikrni konkretlashtirish (olamni teran anglash-tanishga yo‘naltirilgan, subyekt yoki obyekt haqidagi ma’lumotning yorqin-aniq tarzda anglanishini ta’minlashi). Mazkur fikrimizni quyidagi misollar bilan dalillaymiz: Masalan, *“Osmonlar-u yerning g‘ayb (ilm)i Allohnikidir. Soat (qiyomat) ishi esa, ko‘z ochib yumgandek yoki undan ham yaqinroqdir. Albatta, Alloh har bir narsaga qodirdir”* (Qur’oni Karim. Nahl, 77-oyat); *“Va Alloh sizlarga yerni gilamdek to‘shab qo‘ydi”* (Qur’oni Karim. Nuh, 19-oyat) va sh.k. E’tiborli jihat shuki, Yaratuvchining bayoniy mahorati o‘laroq, diniy matnlarning stilistik xususiyatlari o‘ziga xos. Bu esa oyatlardagi o‘xshatishlarning har ikki jihatni o‘zida yorqin aks ettirganida ham yorqin aks etadi. 154 ta o‘xshatish konstruksiyalaridan 51 tasi turg‘un o‘xshatishlar turiga kiradi.

III. To‘liq va to‘liqsiz o‘xshatishlar.

1. To‘liq o‘xshatishlar tarkibidagi to‘rt komponent: A – *qiyos subyektining simvoli*, B – *qiyos etaloni simvoli*, β – *qiyosning formal ko‘rsatkichi*, C – *qiyos asosi simvolining barchasi leksik birliklar bilan ifodalanadi*. *“Inson yaxshilikka duo qilganidek, yomonlikka ham duo qilur. Inson shoshqoloq bo‘lgandir”* (Qur’oni Karim. Isro, 11-oyat). Bunda *inson* – *qiyos subyektining simvoli*, *duo qilganidek* – *qiyos etaloni simvoli*, *-dek* – *qiyosning formal ko‘rsatkichi*, *duo qilur* – *qiyos asosining simvoli*. Ko‘rinib turganidek, o‘xshatish komponentlarining barchasi leksik birliklar bilan ifodalangan va sh.k.

2. To‘liqsiz o‘xshatishlarda C – *qiyos asosining simvoli* leksik birliklar bilan ifodalanmaydi. Bunda A – *qiyos subyektining simvoli*, B – *qiyos etaloni simvoli*, β – *qiyosning formal ko‘rsatkichi* mavjud bo‘lib, C – *qiyos asosining simvoli* anglatgan ma’no B – *qiyos etaloni simvoliga* ko‘chadi. Alohida e’tirof etish joizki, Qur’oni Karim tafsiridagi to‘liqsiz o‘xshatishlar mavjud to‘liqsiz o‘xshatishlar

ta'rifiga monand emas, ya'ni konstruksiyada C – *qiyos asosining simvoli* emas, A – *qiyos subyekti simvolining* leksik birliklar bilan ifodalanmasligi kuzatiladi. Masalan, “*Dengizda tog‘dek bo‘lib suzib yuruvchilar ham Unikidir* (Qur’oni Karim. Ar-Rohman, 24-oyat) misolida birinchi, B – *qiyos etaloni simvoli* “**tog‘**” ikkinchi, β – *qiyosning formal ko‘rsatkichi* “**-dek bo‘lib**”; uchinchi, C – *qiyos asosining simvoli* “**suzib yuruvchilar**” kabi bo‘linadi. Mazkur o‘xshatishda A – *qiyos subyekti simvoli* ishtirok etmagan. Tadqiqotda 154 ta o‘xshatish konstruksiyalari orasida to‘liqsiz o‘xshatish konstruksiyalari miqdor jihatidan juda kam bo‘lib, atiga bir dona ekanligi, to‘liq o‘xshatishlar esa miqdor jihatidan eng ko‘p qo‘llanishda ekani aniqlandi.

IV. Vositasiz o‘xshatishlar to‘rt komponentdan ikkitasi: A – *qiyos subyekti simvoli*, B – *qiyos etaloni simvolidagina* tarkib topadi, ya'ni unda β – *qiyosning formal ko‘rsatkichi* va C – *qiyos asosining simvoli* ishtirok etmaydi (ya'ni leksik birliklar bilan ifodalanmaydi). Tadqiqot davomida 154 ta o‘xshatish konstruksiyalari orasida bunday turdagi o‘xshatishlar mavjud emasligi aniqlandi.

V. Sodda, murakkab va tarkibli o‘xshatishlar.

1. Sodda o‘xshatishlarda bir gap tarkibida o‘xshatish komponentlari: A – *qiyos subyekti simvoli*, B – *qiyos etaloni simvoli*, β – *qiyosning formal ko‘rsatkichi* va C – *qiyos asosining simvoli* bittadan bo‘ladi. Bunday o‘xshatishlar Qur’oni Karim tafsirida miqdor jihatidan salmoqli o‘rin egallaydi, masalan, “*Agar ularni hidoyatga da’vat qilsangiz, eshitmaslar. Ularni senga nazar solib turgandek ko‘rasan. Holbuki, ular ko‘rmaslar deb ayt* (Qur’oni Karim. A’rof, 198-oyat); Qur’oni Karim tafsiridagi o‘xshatishlarning o‘ziga xosligi shundaki, β – *qiyosning formal ko‘rsatkichi* bitta o‘xshatish konstruksiyasida bir emas ikkitadan qo‘llangani ham aniqlandi. Xususan, “*misoli*”, “*xuddi*” kabi ko‘makchilarning bitta o‘xshatish tarkibida bir vaqtda yonma-yon qo‘llanilishi kuzatildi. Bu esa o‘xshatishdan ko‘zlangan badiiy-estetik ta’sirning g‘oyatda kuchli bo‘lishini ta’minlaydi. Masalan, misoli xuddi ... -ga o‘xshaydi formal ko‘rsatkichi ishtirokidagi o‘xshatish: “*Bu ikki guruhning misoli xuddi kar-u ko‘r hamda eshituvchi va ko‘ruvchiga o‘hshaydir. Ular bir-birlarga barobar bo‘la oladilarmi? Ibrat olmaysizlarmi?* (Qur’oni Karim. Hud, 24-oyat) va sh.k. 154 ta o‘xshatish konstruksiyalaridan 8 tasi sodda o‘xshatishlar turini izohlaydi.

2. Murakkab o‘xshatishlarda A – *qiyos subyekti simvoli*, B – *qiyos etaloni simvoli*, β – *qiyosning formal ko‘rsatkichi* va C – *qiyos asosining simvoli* ikkitadan bo‘ladi. 154 ta o‘xshatish konstruksiyalari orasida bunday turdagi o‘xshatishlar mavjud emasligi aniqlandi.

3. Tarkibli o‘xshatishlarda A – *qiyos subyekti simvoli*, B – *qiyos etaloni simvoli*, β – *qiyosning formal ko‘rsatkichi* va C – *qiyos asosining simvoli* ikkitadan bo‘ladi. 154 ta o‘xshatish konstruksiyalari orasida bunday turdagi o‘xshatishlar mavjud emasligi aniqlandi.

VI. Uzilgan va ketma-ket o‘xshatishlar.

1. Uzilgan o‘xshatishlarni mavjud izlanishlardagi tavsiflar asosida shakliy-mazmuniy qurilishi jihatidan uch qismga bo‘lib ko‘rsatishimiz to‘g‘ridir. Ular quyidagicha:

a) uzilgan o'xshatishlarda to'rt komponent bir gap ichida kelmaydi. Bunda A – *qiyos subyektining simvoli* bilan C – *qiyos asosining simvoli* bir gap ichida kelsa, B – *qiyos etaloni simvoli*, β – *qiyosning formal ko'rsatkichi* ikkinchi bir gapni tashkil qilib, o'zi bilan C – *qiyos asosining simvoli* o'rnida o'xshatish ma'nosiga ega bo'lgan ayrim so'zlarni olib keladi. Masalan, *Amrimiz kelgan paytda Shu'aybga va u bilan iymonga kelganlarga O'z rahmatimiz ila najot berdik. Zulm qilganlarni esa, qichqiriq tutdi va diyorlarida to'kildilar* (94). *Xuddi u yerda yashamaganlardek. Ogoh bo'lingkim, xuddi Samud yo'qolgandek, Madyan ham yo'qoldi* (Qur'oni Karim. Hud, 95 -oyat) va sh.k.

b) ayrim uzilgan o'xshatishlar sintaktik butunliklar orqaligina bir butun ma'noga ega bo'ladi va o'zidan oldingi gapni xulosalash uchun xizmat qiladi⁴⁶. Masalan, *Alloh osmonlar va yerning nuridir. Uning nurining misoli xuddi bir tokcha, uning ichiga chiroq qo'yilgan, chiroq esa shisha ichida, shisha esa, go'yo durdan bo'lgan bir yulduz bo'lib, sharqiy ham, g'arbiy ham bo'lmagan muborak zaytun daraxtidan yoqiladir. Uning moyi o'ziga olov tegmasa ham, yoritib yuboray deydir. (Bu) nur ustiga nurdir. Alloh xohlagan odamni O'z nuriga hidoyat qilur. Alloh odamlarga misollarni keltirur. Alloh har bir narsani o'ta bilguvchidir* (Qur'oni Karim. Nur, 35-oyat).

c) ayrim uzilgan o'xshatishlarda *xuddi* yuklamasi o'zlik olmoshi – “o'zi” hamda ko'rsatish olmoshi – *ana shu* bilan birgalikda C – *qiyos asosining simvoli* o'rnida keladi. Masalan, *Qachonki u kelganida: “Sening taxting shundaymi?” deyildi. U: “xuddi o'shaning o'zi” dedi. “Bizga bundan ilgari ilm berilgan edi va musulmon bo'lgan edik”* (Qur'oni Karim. Naml. 42 -oyat) va sh.k.

2. Ketma-ket o'xshatishlarda B – *qiyos etaloni simvoli* birdan ortiq bo'lib, birgina A – *qiyos subyektining simvolini* har tomonlama aniqlashga, oydinlashtirishga, tiniqlashtirishga qaratiladi. Bularda avval A – *qiyos subyektining simvoli* keladi. B – *qiyos etaloni simvolidan* oldin, keyin ularning o'rtasida *xuddi, va, yoki, go'yo, kabi* yordamchi so'zlari kelib, o'xshatishlarni bog'lashga, ma'noni bo'rttirishga xizmat qiladi. Masalan, *Allohga bo'lgan iymondan og'mang, unga shirk keltirguvchi bo'lmang. Kim Allohga shirk keltirsa, bas, u go'yoki osmondan qulab tushgan-u, uni yirtqich qush olib qochgan yoki uchirib ketgan kabidir* (Qur'oni Karim. Haj, 31-oyat); *Ular Robbilarining oyatlari eslatilganda, u (oyat)larga gung va ko'rlardek tashlanmaslar* (Qur'oni Karim. Furqon, 73-oyat) va sh.k.

VII. Old o'rinli va so'ng o'rinli o'xshatishlar.

1. Old o'rinli o'xshatishlar turining muhim belgisi – tarkibidagi komponentlar joylashuvining o'zgarishidir. Bundan muddao, o'xshatish amalini bajaruvchi shaxsning mazkur o'xshatish konstruksiyasi vositasida suhbatdoshi(tinlovchi, o'quvchi, adresat, resipiyent)ga ta'sir qilishda C – *qiyos asosining simvoliga* e'tiborni jalb etishdir.

Ushbu turda birinchi B – *qiyos etaloni simvoli*; ikkinchi, β – *qiyosning formal ko'rsatkichi*; uchinchi, C – *qiyos asosining simvoli* va to'rtinchi, A – *qiyos*

⁴⁶ Мукаррамов М. Кўрсатилган манба. – Б. 31.

subyektining simvoli o‘rinlashadi. “Dengizda **tog‘dek bo‘lib suzib yuruvchi kemalar** uning (qudrati) oyat (belgi)laridandir” (Qur‘oni Karim. Shuaro, 32-oyat).

2. So‘ng o‘rinli o‘xshatishlarda kishining diqqat e‘tibori avval obyektga qaratiladi, undan so‘ng esa shu obyektning biror bir muhim belgi, xususiyatiga mos obraz beriladi. Ushbu ta‘rif o‘xshatishlarning odatiy tartibda joylashuvini izohlaydi. Bu esa ,

- 1) A – qiyos subyektining simvoli;
- 2) B – qiyos asosining etaloni;
- 3) β – qiyosning formal ko‘rsatkichi;
- 4) C – qiyos asosining simvoli tartibida bo‘ladi.

Bobning ikkinchi fasli “**Qur‘oni Karim tafsiridagi o‘xshatishlarning pragmatik tahlili**” deb nomlanadi va tilshunoslik ilmda ilk bor *pragmatik o‘xshatishlar* turi farqlanadi.

Til ilmining bugungi antropotsentrik paradigma asosidagi taraqqiyoti o‘xshatish konstruksiyasini **til** va **nutq** bosqichida o‘zaro aloqadorlikda tadqiq etish, uning yangidan yangi xususiyatlarini tavsiflashga imkon beradi. Yuqoridagi fasllarda bayon qilingin o‘xshatish konstruksiyalarining tavsif-u tasnifi: o‘xshatish uzvlari tadqiqi, xususan, o‘xshatishning shakliy-mazmuniy maydoni, uning struktural-kompozitsion tuzilishiga doir mulohazalar **til bosqichida** o‘xshatish xodisasi muayyan qolip sifatida mavjud ekanini izohlaydi. **Nutq bosqichida** esa asosiy e‘tibor o‘xshatish komponentlarining nutqiy vaziyat bilan bog‘liq holdagi yashirin ma‘nosiga qaratiladi.

Pragmatik o‘xshatishning nutqiy vaziyat bilan bog‘liq holdagi pragmatik ma‘nosi deganda, o‘xshatish uzvlaridagi biror so‘zning nutqiy akt talabi bilan tamoman boshqa voqea-hodisa, predmet yoki shaxsga ishora ma‘nosini tushunish to‘g‘ridir. Masalan, “**Biz kitob berganlar uni o‘z farzandlarini taniganidek tanirlar**”. Ular o‘zlariga ziyon qilganlardir, ana o‘shalar iymon keltirmaslar. (Qur‘oni Karim. An‘om, 20-oyat). Ushbu oyatda keltirilgan o‘xshatish sof pragmatik harakterga ega bo‘lib, o‘xshatishdagi “**o‘z farzandlarini taniganidek tanirlar**” jumlasini Qur‘oni Karim nozil bo‘lgan davrdagi real voqea-hodisalarga ishora qiladi. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf “Tafsiri Hilol” asarining ikkinchi juzida ushbu oyatni tafsir qilib, shunday yozadi: “Ya‘ni Alloh kitob bergan qavmlar – ahli kitoblar – yahudiy va nasorolar Muhammad sollallohu alayhi vasallamni xuddi o‘z farzandlarini tanigandek taniydilar. Chunki, Muhammad sollallohu alayhi vasallamning vasflari ularga Alloh tomonidan berilgan ilohiy kitob(lar)da zikr etilgan”⁴⁷. Ushbu misoldagi “**o‘z farzandlarini taniganidek tanirlar**” jumlasini nutq bosqichida o‘z ma‘nosidagi – har qanday odamning o‘z farzandini tanishini izohlamaydi, balki o‘ziga xos xususiylik, ya‘ni konkret voqea-hodisaga ishora ma‘nosini ifodalaydi.

Pragmatik tahlil va uning to‘laqonli bo‘lishi xususida so‘z yuritar ekan, tilshunos olim Sh.Safarov nutqiy muloqotda axborot uzatish “yuki” so‘zsiz, lisoniy birliklar “yelkasi”ga tushishi ta‘kidlaydi. Ushbu ta‘rifga monand holda biz ham o‘xshatishning qaysi komponenti pragmatik axborot uzatish “yuki”ni o‘z

⁴⁷ Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Кўрсатилган манба. 2-жиуз. – Б. 171.

zimmasiga oladi degan tabiiy savolni o'rtaga tashlaymiz. Bunda o'xshatish konstruksiyasi uzvlarining ahamiyati, o'zni va roli sharhiga ehtiyoj tug'iladi. O'xshatish konstruksiyasida to'rt komponent orasida eng asosiysi hisoblangan B – *qiyos etaloni simvoli* sifatida keltirilgan leksik birlikning xosila sememasi tarkibida pragmatik semaning yuzaga chiqishi o'xshatish konstruksiyasining nutq bosqichida pragmatik o'xshatish deb tavsiflanishiga asos bo'ladi. Bunda B – *qiyos etaloni simvolida* ifodalangan so'zning pragmatik xarakterda bo'lishi, ya'ni nutqiy vaziyatga, "so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi shartnomaviy munosabat"⁴⁸ga mos holda o'z denotativ ma'nosidan tamoman boshqa ma'noga ishora qilib kelishi talab etiladi.

Tadqiqotimiz davomida 154 ta o'xshatish konstruksiyalarining qariyb 52% qismi, ya'ni 80 tasi pragmatik o'xshatishlar turiga kirishi aniqlandi.

Pragmatik o'xshatish turi bugunga qadar mavjud bo'lgan o'xshatish turlari orasida nutq bosqichidagi o'ziga xos yangi tur sifatida qimmat kasb etadi va oltinchi funksional uslub sifatida taklif etilayotgan diniy nutq uslubiga xos matnlar tadqiqida muhim ahamiyatga molikdir. Bu kabi o'xshatishlarning obyekt sifatida olinishi kelgusidagi amalga oshirilajak izlanishlarda muhim omil sifatida qimmat kasb etadi.

UMUMIY XULOSALAR

1. Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida "jaholatga qarshi ma'rifat" ulug'vor g'oyasi asosida dinning asl insonparvarlik mohiyati: ezgulik, tinchlik va insoniylik kabi fazilatlar hamda azaliy qadriyatlarimiz ifodachisi ekanligini keng yoritish va bu sohadagi ilmiy-ma'rifiy faoliyatni jadal tashkil etish tilshunoslik va din ilmini mutanosiblikda o'rganish borasida qimmatli ilmiy izlanishlar olib borish vazifasini o'rtaga qo'ymoqda.

2. Bugungi kunga qadar o'zbek tilshunosligida olib borilgan teolingvistik tadqiqotlarda Qur'oni Karim tafsiridagi o'xshatish konstruksiyalarining lingvistik va pragmatik tabiati: o'ziga xos jihatlari, turlari, shakliy-mazmuniy qurilishi, ishora ma'nolari monografik tarzda o'rganilmagan. Bu esa dolzarb mavzu hamda "ohorli" manba tadqiqini taqozo etadi.

3. Teolingvistik izlanishlar shuni ko'rsatadiki, diniy leksika va diniy (nutq) matnlarga xos jihatlarni jamlovchi, farqlovchi va tavsiflovchi diniy uslubga ehtiyoj mavjud. Alohida ta'kidlash joizki, diniy nutq uslubi mavjud va diniy matnlarni mazkur nutqning oltinchi funksional uslubi doirasida o'rganilishi maqsadga muvofiqdir.

4. Boshqa nutq uslublariga mansub matn turlaridan farqli holda diniy matnlar tavsifi va tasnifida, dastlab, ularni yaratuvchi muallifning kim ekanligini e'tiborga olinishi zarur. Bunda ikki guruh: 1) muquddas diniy manbalar: *Tavrot, Zabur, Injil, Qur'on*; 2) diniy matnlar: a) *hadislar*, b) *diniy ilmiy matnlar (tajvid, hadisshunoslik, islom tarixi, fiqh kabi yo'nalishlarda yaratilgan ilmiy matnlar)*, v) *dinga oid terminografik va qomusiy lug'atlar*, g) *diniy publitsistik matnlar*, d) *diniy va'zlar*, e) *duo matnlarini* farqlash maqsadga muvofiq.

⁴⁸ Раҳимов У.Э. Прагматик синонимия // АДУ Илмий хабарномаси. 2010. – № 3. – 21-26.

5. *Muqaddas diniy manbalar* guruhini nomlashda *manba* deyishimiz ularning Yaratuvchi tomonidan nozil qilinganligi bilan o'ziga xosligi: yaxlit va o'zgarmas ekanligiga ishora qiladi. *Diniy matnlar* esa o'z o'rnida insoniyat qalamiga mansub ekani bilan xarakterlanadi. *Muqaddas diniy manbalar* barcha turdagi *diniy matnlar* uchun asos-omil, ibtido vazifasini o'taydi.

6. O'zbek tilshunosligida teolingvistik yo'nalishda bajarilajak tadqiqotlarda "Quroni Karim" va hadislarining asl manbasi arab tilida bo'lganligi sababli ularning o'zbek tilidagi *ma'nolar tarjimasi* yoki *tafsiriga* asoslanish, bunda *tarjimon va ma'nolar tarjimasining* hamda *mufassir va tafsir manbaining* o'ta ishonchli bo'lishi g'oyat muhimdir.

7. Qur'oni Karim tafsiridagi o'xshatishlar – istalgan nutq uslubiga xos matn turlarida keltirilgan o'xshatishlardan farqli holda, muqaddas diniy manba – Qur'oni Karimni yaratuvchi Alloh taaloning mahoratini namoyon etuvchi vositalardan biri bo'lib, o'z badiiy tasvir maksadiga mos ravishda yuksak badiiyatga egadir. Bu o'xshatishlarning faqatgina Yaratuvchigagina tegishli ekani, insonni lol qoldiruvchi emotsional-ekspressivlik, obrazlilikni aks ettirishi barobarida badiiy-estetik qimmat kasb etishi va shu bilan birga konkretligi – Alloh taaloning dunyo-oxirat ilmi Egasi sifatida O'zi yaratgan borliq hamda insoniyatning eng nozik nuqtalari – haqiqatlarini bilishi asosida ro'yobga chiqadi.

8. Til ilmining bugungi antropotsentrik paradigma asosidagi taraqqiyoti o'xshatishlarni nafaqat lingvistik, balki pragmatik jihatdan ham tadqiq etishga yo'l ochadi. Bunda o'xshatish konstruksiyasini til va nutq bosqichida o'zaro aloqadorlikda yoritish, uning yangidan yangi xususiyatlarini tavsiflashga imkon beradi. Qur'oni Karim tafsiridagi o'xshatishlar ikki bosqichda: *til bosqichida* o'zbek tilshunosligida mavjud yettita o'xshatish turining to'rt komponent asosida tavsiflanishi; *nutq bosqichida* pragmatik o'xshatish turining ishora ma'nolari dalillanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

9. O'xshatish konstruksiyalarining 1) *konkret va abstrakt o'xshatishlar*; 2) *individual va turg'un o'xshatishlar*; 3) *to'liq va to'liqsiz o'xshatishlar*; 4) *vositasiz o'xshatishlar*; 5) *sodda, murakkab va tarkibli o'xshatishlar*; 6) *uzilgan va ketma-ket o'xshatishlar*; 7) *old o'rinli va so'ng o'rinli o'xshatishlar* kabi yetti guruhining tavsif-u tasnifi: o'xshatish uzvlari tadqiqi, xususan, o'xshatishning shakliy-mazmuniy maydoni, uning struktural-kompozitsion tuzilishiga doir mulohazalar *til bosqichida* o'xshatish xodisasi muayyan qolip sifatida mavjud ekanini izohlaydi.

10. Nutq bosqichida asosiy e'tibor o'xshatish komponentlarining nutqiy vaziyat bilan bog'liq holdagi yashirin ma'nosiga qaratiladi. Pragmatik o'xshatishning nutqiy vaziyat bilan bog'liq holdagi pragmatik ma'nosi deganda, o'xshatish uzvlaridagi biror so'zning nutqiy akt talabi bilan tamoman boshqa voqea-hodisa, predmet yoki shaxsga ishora ma'nosini tushunish to'g'ridir.

11. Agar o'xshatish hodisasiga kategoriya sifatida yondashilsa, uning *lisoniy*, va *pragmatik* kategoriya ekanligi ko'rinadi. Lisoniy kategoriya sifatida o'xshatish tarkibidagi so'zlar umumiy atash ma'nosi tushunilishi to'g'ridir. *Pragmatik o'xshatish* esa mazmuniy kategoriya bo'lib, o'xshatish uzvlarining nutqiy vaziyatda ishora ma'no anglatishiga asoslanadi.

12. Pragmatik o‘xshatishlarda eng asosiy komponent hisoblangan B – *qiyos etaloni simvoli* sifatida keltirilgan leksik birlik pragmatik axborot uzatish “yuki”ni o‘z zimmasiga oladi. Unda keltirilgan leksik birlik xosila sememasi tarkibidagi pragmatik semaning yuzaga chiqishi o‘xshatish konstruksiyasining nutq bosqichida *pragmatik o‘xshatish* deb tavsiflanishiga asos bo‘ladi va o‘ziga xos yangi tur sifatida qimmat kasb etadi.

**SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING SCIENTIFIC DEGREE
PhD.03/04.06.2021.Fil.132.01 AT KOKAND STATE PEDAGOGICAL
INSTITUTE NAMED AFTER MUKIMI**

ANDIJAN STATE UNIVERSITY

ISMOILOVA NODIRABEGIM USMONJON KIZI

**LINGUISTIC CHARACTERISTICS OF THE SIMILES IN THE
INTERPRETATION OF THE QUR'AN (In the example of the work
"Tafsir Hilal" by Sheikh Muhammad Sadik Muhammad Yusuf)**

10.00.01 – Uzbek Language

**ABSTRACT
of dissertation of the doctor of philosophy (PhD) on PHILOLOGICAL SCIENCES**

Kokand – 2023

The theme of the dissertation of the Doctor of Philosophy is registered in the Supreme Attestation Commission at the Ministry of higher education, science and innovations of the Republic of Uzbekistan under the number B2022.4.PhD/Fil2163.

The dissertation was completed at the Andizhan state university.

The abstract of the dissertation is available in three languages (Uzbek, English, Russian (resume) on the website of the Academic Council (www.kspi.uz) and on the Information and Education Portal "ZiyoNet" (www.ziynet.uz).

Scientific supervisor: Nurmanova Dilfuza Abduhamidovna
Doctor of Philological Science (DSc), Docent

Official opponents: Jamoliddinova Dilnoza Mirhojiddinovna
Doctor of Philological Science (DSc), Professor

Raupova, Laylo Raximovna
Doctor of Philological Science, Professor

Leading organization: Namangan davlat universiteti

The defense of the dissertation will be held at the meeting of the Academic Council of PhD.03/04.06.2021.Fil.132.01 under the Kokand State Pedagogical Institute in 2023 * 08 * 07 at 9.00 (Address: 150700, Kokand, Turon street, 23. Tel: (99873) 542-38-38; fax: (99873) 542-11-43; e-mail: quqondpi@umail.uz).

The dissertation is available at the Information Resource Center of Kokand State Pedagogical Institute (registered under number _____) (Address: 150700, Kokand, Turon street, 23. Tel: (99890) 508-64-42; e-mail: qdpi_arm@umail.uz).

The abstract of the dissertation was distributed on " ____ " _____, 2023.
(Register protocol numbered _____ in " ____ " _____, 2023)



M. Hakimov

M.Hakimov
Chairman of the Scientific Council
awarding scientific degrees, Doctor of
Philological Sciences, Professor

Sh. Akramov

Sh.Akramov
Secretary of the Scientific Council
awarding scientific degrees, Candidate
of philological sciences, Docent

M. Hakimova

M.Hakimova
Chairperson of the Scientific Seminar at
the Scientific Council awarding scientific
degrees, Doctor of Philological
Sciences, Docent

INTRODUCTION (annotation of the dissertation for the degree of Doctor of Philosophy (PhD))

Relevance and necessity of the dissertation theme. In the world, the collaborative integration of linguistics with a number of related fields in the system of sciences prepared the ground for the emergence of new scientific directions. Nowadays, modern trends in linguistics cover issues based on the anthropocentric paradigm, enriching the conclusions of existing studies with their important theoretical and practical views on the intersection of personality and speech.

Nowadays, the systematic and structural as well as anthropocentric description of religious texts from the point of view of religious style in several directions serves the development of linguistics in world linguistics. It should be rightly noted that although the research of a number of aspects specific to the form-content structure of artistic texts has gained scope in linguistics, the description and classification of religious sources and texts, and their distinctive features, have not been sufficiently researched. In this sense, illuminating the sacred religious source - Holy Qur'an as a research object of theological studies, revealing the linguistic features of simile constructions in its interpretation among religious texts is of great importance in the development of modern branch of Uzbek linguistics.

In our country, comprehensive measures are being taken to further develop the Uzbek language especially in the process of establishing New Uzbekistan. "According to the Action Strategy for the five priority areas of the development of the Republic of Uzbekistan in 2017-2021: based on the noble idea of enlightenment against ignorance, wide coverage of the original humanitarian nature of religion, virtues such as goodness, peace and humanity are expressions of our ancient values, and intensive organization of scientific and educational activities in this field"¹ at the same time, valuable scientific research is being carried out on the study of linguistics and religious science in proportion. In Uzbek linguistics in this field, the main focus is on: exotic lexicon in religious texts; linguistic and cultural characteristics of temporal words representing the category of time in sacred texts; the reflection of the religious-mythological imagination in the linguistic image of the world; although it is focused on issues such as linguo-pragmatic features of religious texts, similes in the interpretation of the Holy Qur'an have not been monographically studied as an object of theological research.

To a certain extent, this dissertation work will serve to implement the tasks set out in the Presidential Decrees PF-4997 of the President of the Republic of Uzbekistan of May 13, 2016 "On the establishment of the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi",

¹ See: Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Диний-маърифий соҳа фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида 16.04.2018 йилдаги ПФ-5416-сон. <https://lex.uz/docs/3686277>; Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги ПФ-4947-сон Фармони. – Т.: Адолат, 2017. – 112 б.; Мирзиёев Ш. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 47 б.; Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 75-сессиясидаги нутқи. 23.09.2020// <https://president.uz/uz/lists/view/3851>.

PF-4947 of February 7, 2017 "On the strategy of actions for the development of the Republic of Uzbekistan for 2017-2021" and regulatory legal documents related to this field, Resolution PQ-2789 of February 17, 2017 "On measures to further improve the activities of the Academy of Sciences, organization, management and financing of scientific research", Resolution of April 16, 2018 PF- Decree No. 5416 "On measures to fundamentally improve the activities of the religious and educational sphere", No. PF-5850 of October 21, 2019 "On measures to fundamentally increase the prestige and position of the Uzbek language as a state language", Cabinet of Ministers, 2019 Decision No. 984 of December 12 "On Approval of the Regulation on the Department of State Language Development" and other regulatory legal documents related to the activity.

Correspondence of the research to the priorities of the development of science and technology of the republic. The research has been carried out within the framework of priority line I. "Social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of the information society and democratic state, development of innovative economy" of the republic's science and technology development.

The degree to which the problem has been studied. The study of religious texts in world linguistics is of great importance and requires a special responsibility, of course. Since the end of the 20th century, the study of issues such as the problem of religious language, areas of application of religious language and religious texts has developed. Among the Uzbek scholars who have studied religious texts from different perspectives are M.Umarkhojaev² (religious style and religious terminology), N.M.Ululov³ (exotic vocabulary in Uzbek religious texts), Sh.S.Sirojiddinov⁴ (religious-philosophical teaching in the works of Uzbek classics), Sh.T.Mahmaraimova (cognitive aspect of theomorphic metaphors)⁵, Sh.M.Sultonova⁶ (linguistic and cultural features of temporal words representing the category of time in sacred texts), M.R.Galieva⁷ (mythological-religious consciousness in the linguistic landscape of the world), Sh.R.Amonturdiyeva⁸ (Uzbek religious text functional-stylistic analysis), Sh.T.Yusupova⁹ (linguopragmatic features of religious texts) etc. should be acknowledged.

² Умархўжа М. Диний атамалар ва иборалар. Оммабоп кискача изоҳли луғат. – Тошкент: Гафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2016. – 220 б.

³ Улуков Н.М. Ўзбекча диний матнлар экзотик лексикаси: Филол. фан. номз. дисс. ... автореферати. – Тошкент, 1997. – 25 б.

⁴ Сирожиддинов Ш.С. Диний-фалсафий таълимотлар ва Навоий дунёқараши // Алишер Навоий ижодий ва маънавий меросининг оламшумул аҳамияти. Халқаро илмий-назарий анжуман материаллари. – Тошкент, 2011.

⁵ Махмараимова Ш.Т. Оламнинг миллий лисоний тасвирида теоморфик метафоранинг когнитив аспекти: Филол. фан. б.ф.д. (PhD) диссертацияси. – Қарши, 2018.

⁶ Султонова Ш.М. Муқаддас матнларда замон категориясининг лингвомаданий хусусиятлари: Филол. фан. б.ф.д. (PhD) диссертацияси. – Фарғона, 2018.

⁷ Галиева М.Р. Дунёнинг лисоний тасвирида диний морфологик тафаккурнинг акс этиши. Филол. фан. доктори (DSc) ... диссертацияси автореферати. – Фарғона, 2018. – 77 с.

⁸ Амонтурдыева Ш.Р. Ўзбек диний матнининг функционал-стилистик таҳлили: Филол. фан. б.ф.д. (PhD) диссертацияси. – Самарқанд, 2018.

⁹ Юсупова Ш.Т. Диний матнларнинг лингвопрагматик хусусиятлари: Филол. фан. б.ф.д. (PhD) диссертацияси. – Фарғона, 2018.

M.I.Cheremisina, L.A.Lebedeva¹⁰ in Russian linguistics from the works devoted to the morphological, substantive and stylistic study of similes; In Uzbek linguistics, the researches of R.Kongurov, M.Mukarramov, D.Khudoyberganova¹¹ can be mentioned. N.Mahmudov's articles¹² on the fixed similes of the Uzbek language are the first studies aimed at studying similes in Uzbek linguistics from a linguistic and cultural point of view. Also, in the "Explanatory Dictionary of Uzbek Language Similes"¹³ compiled by N.Mahmudov and D.Khudoyberganova, the semantic and linguistic features of more than 500 similes in our language are proven lexicographically.

F.Usmonov's dissertation entitled "Linguo-cultural study of similes in the Uzbek language" deserves special recognition as a valuable study devoted to the study of similes. In the study, the linguistic landscape characteristic of the Uzbek nation is described, and the value system specific to the national culture is based on the linguistic landscape of the Uzbek language through linguistic and cultural research¹⁴.

The fact that similes in the interpretation of the sacred religious source – the Holy Qur'an – have not been studied on a monographic basis in the studies carried out in Uzbek linguistics to date, proves the relevance of the topic and the novelty of the research object. In the process of writing the dissertation, the names and scientific researches of a number of other Uzbek and world scientists were taken into consideration. In our research, in contrast to the work done in this direction, for the first time in Uzbek linguistics, the Holy Qur'an was turned into an object of theological research and the linguistic features of similes in its interpretation were revealed.

Relationship of the research with the research plans of the higher education institution where the dissertation has been completed. The dissertation has been completed in connection with the topic of "Current Issues of Modern Linguistics" of the research plan of Andijan State University.

The aim of the research is to describe the sacred religious source - the Holy Qur'an for the first time in Uzbek linguistics as an object of theological research and to study the linguistic characteristics of constructions with similes in its interpretation among religious texts.

Research objectives:

to clarify the scope of theological studies in world and Uzbek linguistics;

¹⁰ Черемисина М.И. Сравнительные конструкции русского языка. – Новосибирск: Наука, 1976. – 239 с.; Лебедева Л.А. Устойчивые сравнения русского языка во фразеологии и фразеологии. – Краснодар, 1999. – 196 с.

¹¹ Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Тошкент: Фан, 1977. – 152 б.; Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. Монография. – Тошкент: Фан, 1976. – 88 б.; Худайберганова Д.С. Семантический и стилистический анализ конструкций уподобления в узбекском языке: Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1989. – 127 с.

¹² Махмудов Н. Ўхшатишлар – образли тафаккур маҳсули // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2011. – №3. – Б. 19-24; Махмудов Н. Ўхшатишлар ва миллий нигоҳ // Тил тилсими тадқиқи. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2017. – Б. 166-175.

¹³ Махмудов Н., Худайберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013. – 320 б.

